

BADIY MATN TAHLILIDA FONOLOGIK, GRAMMATIK VA SEMANTIK
DARAJALAR

Saidova Rayhonoy Abdugʻaniyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15530156>

Annotatsiya. Badiiy matnni shakllantirishda grammatik (morfologik va sintaktik) shakl va vositalarning ham oʻziga xos oʻrni boʻlib, muayyan bir matndagi gap qurilmalarining yuzaga kelishi faqat muallifning ixtiyori, uning uslubidagi xoslikkına boʻlib qolmay, matn talabi, ehtiyoji, badiiy-gʻoyaviy konseptsiyasiga bogʻliq.

Kalit soʻzlar: struktura, grammatika, gap qurilmalari, matn darajalari, fonemalar, fonema, fonologik tahlil, sintaktik butunlik.

Аннотация. Грамматические (морфологические и синтаксические) формы и средства также играют определенную роль в формировании художественного текста, а возникновение речевых приемов в конкретном тексте зависит не только от усмотрения автора и особенностей его стиля, но и от запросов, потребностей, художественно-идеологического замысла текста

Abstract. Grammatical (morphological and syntactic) forms and means also play a specific role in the formation of a literary text, and the emergence of speech devices in a particular text depends not only on the author's discretion and the peculiarities of his style, but also on the demands, needs, and artistic and ideological concept of the text.

Adabiyotshunos, strukturalist olim Yu. M. Lotman oʻzining “Структура художественного текста” kitobida matn qatlamlarida paradigmatic, syntagmatic munosabatlardan tashqari fonologik, grammatik va semantik darajalar mavjudligini koʻrsatgan.

Biz bu oʻrinda mazkur tadqiqotchi va boshqa mualiflarning ishlariga tayangan holda Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi matniy parchalaridagi belgi qurilmasida namoyon boʻlgan ayrim darajalarni koʻrib chiqamiz. Eng avvalo, tanlangan birliklarga fonologik nuqtai nazardan razm solaylik:

1. Bemor.
2. Osmon yiroq, yer qattiq.
3. Sotiboldining xotini ogʻrib qoldi.
4. Bemorning koʻzi tinib boshi aylanadigan boʻlib qoldi.
5. Bir kechasi bemor juda azob tortdi.
6. Kampir bemorning toʻzigan sochlarini tuzatdi, u yoq-buyogʻini siladi... soʻngra oʻtirib yigʻladi.
7. Bemor kundan kun battar, oxiri oʻsal boʻldi.
8. Bemor “...yana koʻzini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi.

Muammoga shunday nigoh bilan qaraganimizda, har bir birlik tarkibida bir yoki bir necha soʻzda o fonemasi mavjudligini koʻramiz:

bemor, osmon, Sotiboldi, xotini, ogʻrib qoldi, bemorning boshi, bemor azob tortdi, bemorning sochlari, oxiri, bemor, qaytib ochmadi. Koʻrinyaptiki, keltirilgan 14 ta soʻzda 18 marta o fonemasi istifoda etilgan. O unlisi “hosil boʻlish oʻrniga koʻra – til orqa, tilning tik

harakatiga ko'ra quyi ko'tarilish unlisi, labning holati (ishtiroki)ga ko'ra lablanmagan" fonema hisoblanadi.

Fikrimizcha, matndagi belgilar qurilmasidagi mazkur nutq tovushi konnotativ mazmunga ega bo'lib, oila, inson fojiasini yanada bo'rttirish, syujet dramtizmini kuchaytirish maqsadida qo'llanilgan. Bu fonema badiiy matnlar tarkibida kirish so'z tarkibida ishlatilganda, qahramon hissiyotlarining me'yordan ortiq daraja kuchli ekanligini anglatadi. Shunday jihat tadqiq etilayotgan hikoyada ham kuzatiladi.

Biz keltirgan fonologik qatorda faollik jihatdan o'tovushidan keyingi o'rinda s undosh fonemasi turganini ko'rish mumkin:

osmon, Sotiboldi, kechasi, sochlari, siladi, so'ngra, o'sal, sahar. Bu qatordagi 8 ta so'z tarkibida sakkiz marta s nutq tovushi istifoda etilgan. Biz keltirgan misollarning barchasi ma'lum bir belgilar tarkibidagi so'z yoki so'z birikmalaridir. Matnda alohida belgi tarzida ishtirok etgan Sotiboldi nomi to'qqiz marotaba takrorlangan. Bu esa ushbu ism tarkibidagi konnotatsiya (yakka-yolg'iz farzand) va so'z qurilmasi tarkibidagi birinchi fonema s undoshiga maxsus e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatadi.

Til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi bo'lgan bu fonema o unlisi kabi baland ohangda aytilmaydi. Bu nutq tovushi jarangining yo'qligi, sirg'alib chiqishi va til oldida paydo bo'lishi kabi xususiyatlariga asoslanib, uning matn badiiy ifoda etilgan g'arib oila taqdirining mahzunligi, mavjud tuzum va jamiyat tomonidan yetarli e'tibor topmaganligini ifodalash maqsadida ishlatilganidan dalolat beradi.

Matnni fonologik jihatdan tahlil qilish jarayonida matn fojiaviyligini yuzaga keltirishda q va g' undosh fonemalarining ham o'ziga xos o'rni va ahamiyati borligini ko'rsa bo'ladi. Badiiy matn tarkibida bu undoshlar o va s tovushlari kabi ancha faol qo'llanilgan, aynan mana shunday fonemalar ishtiroq etgan muayyan lisoniy va sintaktik birliklar (og'rib qoldi, tovuq so'yib qonladi, yo'g'on, og'irlashdi, Abdug'aniboy, oyoqqa bostirib berish, otasining g'azabi, G'avsula'zam, uyqu g'ashligi, qizcha uyg'ondi) mazkur yaratma badiiy konseptsiasini yuzaga chiqarishda muhim o'rin tutgan.

Mazkur undosh fonemalar yuqorida keltirilgan ayrim lug'aviy birliklar tarkibida kelib, favqulodda hodisa (og'rib qoldi, og'irlashdi, otasining g'azabi, oyoqqa bostirib berish), xurofiy urf-odat (tovuq so'yib qonladi), ruhiy yoxud jismoniy holat tasviri (uyqu g'ashligi, qizcha uyg'ondi) kabilarni ifodalashga hizmat qilgan. Lekin bu o'rinda aytish lozimki, unli va undosh fonemalarning matn doirasida qaysidir bir ma'noni yuzaga chiqarish, kuchaytirish, ta'kidlash kabi vazifalari, o'rni cheklangan, ularga yordamchi vositalar tarzida yondashish lozim bo'ladi.

Badiiy matnni shakllantirishda grammatik (morfologik va sintaktik) shakl va vositalarning o'ziga xos o'rni bor. Bu fikr tasdig'ini "Bemor" hikoyasida ham ko'ramiz:

Sotiboldining xotini og'rib qoldi.

Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganda – ushbu sintaklik butunliklarda ishtirok etgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari badiiy syujetdagi hodisa (ayolning kasallanishi, boyning jarohatlanishi)ning kutilmaganda bo'lganini ko'rsatmoqda.

Betobning ko'zi tinib boshi aylanadigan bo'lib qoldi. - Bu o'rinda misol sifatida olingan gapdagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi yuqorida keltirilganidan jiddiy farq qiladi. Mazkur o'rinda u favquloddalikni emas, natijani ko'rsatyapti.

Muayyan bir matndagi gap qurilmalarining yuzaga kelishi faqat muallifning ixtiyori, uning uslubidagi xoslikkina bo'lib qolmay, matn talabi, ehtiyoji, badiiy-g'oyaviy konseptsiyasiga bog'liq ekanligi tahlil etilayotgan hikoya misolida ayonlashadi. Jumladan, matndagi sodda gaplar ishtirokiga e'tibor beraylik:

Sotiboldining xotini og'rib qoldi.

Tabib qon oldi.

Baxshi o'qidi.

Bemor og'irlashdi.

Sotiboldi ketdi.

Hamma yoq jim.

Bemor kundan kun battar, oxiri o'sal bo'ldi

Yuqorida keltirilgan sintaktik birliklarning aksariyati sodda yig'iq gap shaklida bo'lib, ularning matn bosh badiiy g'oyasini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shunday paradigmatic ketma-ketlikda bemorning butun taqdiri jo bo'lgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar, amalga oshirilgan tahlillardan ma'lum bo'ladiki, matn strukturasi yuzaga kelishida quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Belgi munosabatlari.

2. Matn darajalari.

Har bir matn o'z doirasida mavjudlik bilangina kifoyalanib qolmaydi. U doimiy ravishda cheksizlikka – boshqa matnlar hududiga qarab harakatlanadi. Badiiy matn ko'plab xususiyatlarga ega ochiq adabiy-poetik tizim bo'lib, uning bunday alomatlari orasida belgiviylilik, ya'ni belgi orqali o'zini namoyish qilishi va strukturaviyligi alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu ikki jihat matnning o'zligi – mohiyatini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ABDUGANIEVNA, S. R. The Role of Semiotics in Literature. *JournalNX*, 6(09), 190-193.
2. Rayhonoy, S., & Murodov, G. (2020). Structural semiotic analysis of a literary text. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 3319-3323.
3. Муродов, Г., & Саидова, Р. (2017). Интерпретация терминов и их анализ. *Молодой ученый*, (13), 703-705.
4. Saidova, R. A. (2020). SEMIOTIC SQUARE AND BINARY OPPOSITION. *Theoretical & Applied Science*, (2), 201-205.
5. Abduganievna, S. R. Semiotic Analysis of a Literary Text. *International Journal on Integrated Education*, 3(3), 51-56.
6. Истамова, Ш. М. (2021). ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВА ЁЗМА АДАБИЁТ НАМУНАЛАРИДА ТУШ МОТИВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ: Истамова Шоҳида Махсудовна, филология фанлари буйича фалсафа доктори. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 16-19.4.
7. Makhsudovna, I. S. (2023). Dreams as a Means of Psychological Analysis.

8. Истамова, Ш. М. *Поэтико-композиционные функции сна в художественном произведении* (Doctoral dissertation, (PhD) по филологии: 10.00. 02/Истамова Шохида Махсудовна).
9. Истамова, Ш. М. СНОВИДЕНИЯ И СИМВОЛ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. *Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума*, 72.
10. Анъанавий туш рамзларининг поэтик матнда берилиши ШМ Истамова - Новое слово в науке и практике: гипотезы и ..., 2017
11. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2024, February). BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 59-64).
12. Истамова, Ш. М., & Шарипова, М. Б. (2024). ЛИТЕРОНОМИК ТАЖНИС САНЪАТИ АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА. Экономика и социум, (5-2 (120)), 1072-1075.
- a. Maxsudovna, I. S., & Qizi, S. M. S. (2022). The role and importance of puzzles in the development of intellectual abilities of primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 209-213.
13. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2025). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (KAHOOT, EDUCAPLAY KABI PLATFORMALAR MISOLIDA). PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 177-180.
14. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG 'AT USTIDA ISHLASH USULLARI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 184-186.
15. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). LUG'AT USTIDA ISHLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA VAZIFALARI. PEDAGOG, 7(6), 186-189.
16. Sulaymonovich, S. F., & Maqsudovna, I. S. (2020). Types of lexical meanings. Journal of Critical Reviews, 7(6), 481-484.